

## Yosh navqiron Navoiy siymosi aktyorlar nazarida

Go'zal Erkinovna Xalikulova

**Annotatsiya:** Yosh Navoiyda navqiron tuyg'ulari jo'shqin, harakatlari aniq va mulohazali bo'lib, bu nutqining musiqiyligida va tabiatining shoironaligida sezilib turadi. She'rni yonib o'qish va sevgida bosiqlik holatlari ham yaxshi berilgan. Birinchi ko'rinishning o'zida Navoiy - B.Muhammadkarimov turli kayfiyatlarda ko'rinadi: Guli bilan uchrashuv paytida Navoiyning Guliga bo'lgan cheksiz muhabbati, sevgilisi yomon tush ko'rganini aytib bezovtalanganda, unga bildirgan mehribonchiligi, ustoz Abdurahmon Jomiyga ko'rsatgan iltifotlari, shahanshoh Husayn Boyqaroni kutib olishi va uning shubhalarini bartaraf etib, haqiqatni ro'yobga chiqarish yo'lidagi hayajon va iztiroblari - barchasi tegishli holatlarda va shunga mos nutqida o'z aksini topgan. Navoiy - B.Muhammadkarimov sahnadagi har bir vaziyatga qarab o'zgarib boradi. Aktyor Navoiyning yoshlik damlarini ijro etar ekan, o'zining tabiatdagi yoshlik zavqini Navoiyning yoshligidagi shoironalik zavqiga to'lgan damlari bilan bog'lashga harakat qilgan.

**Kalit so'zlar:** aktyor, Navoiy obrazi, Navoiy va Guli obrazi, Navoiyning ruhiy olami, tomoshabin, ohangdorlik

## The image of Navoi, in the eyes of the actors

Gozal Erkinovna Khalikulova

**Abstract:** The emotions of young Navoi are alive, his actions are clear and deliberate, and this is noticeable in the musicality of his speech and the poetry of his nature. Cases of poetry recitation and falling in love are also well represented. In the first picture of Navoi - B.Muhammadkarimov can be seen in a different mood: during a meeting with Guli, Navoi's boundless love for Guli, his kindness to him, when his beloved was disturbed by a bad dream, his compliments to his teacher Abdurakhman Jami, his excitement and suffering on the way to meeting with Shahshah Hussein Boykara and overcoming his doubts and comprehending the truth - all of them were reflected in the relevant situations and in his corresponding speech. Navoi - B.Muhammadkarimov changes depending on each situation on the stage. Playing the moments of Navoi's youth, the actor tried to connect his youthful enjoyment of nature with Navoi's moments full of poetic delight.

**Keywords:** actor, image of Navoi, image of Navoi and Guli, spiritual world of Navoi, audience, tone

Behzod Muhammadkarimov gavdalantirgan yosh Navoiyda navqiron tuyg'ulari jo'shqin, harakatlari aniq va mulohazali bo'lib, bu nutqining musiqiylikida va tabiatining shoironaligida sezilib turadi. She'rni yonib o'qish va sevgida bosiqlik holatlari ham yaxshi berilgan. Birinchi ko'rinishning o'zida Navoiy - B.Muhammadkarimov turli kayfiyatlarda ko'rinadi: Guli bilan uchrashuv paytida Navoiyning Guliga bo'lgan cheksiz muhabbati, sevgilisi yomon tush ko'rganini aytib bezovtalanganda, unga bildirgan mehribonchiligi, ustoz Abdurahmon Jomiyga ko'rsatgan iltifotlari, shahanshoh Husayn Boyqaroni kutib olishi va uning shubhalarini bartaraf etib, haqiqatni ro'yobga chiqarish yo'lidagi hayajon va iztiroblari - barchasi tegishli holatlarda va shunga mos nutqida o'z aksini topgan. Navoiy - B.Muhammadkarimov sahnadagi har bir vaziyatga qarab o'zgarib boradi. Aktyor Navoiyning yoshlik damlarini ijro etar ekan, o'zining tabiatdagi yoshlik zavqini Navoiyning yoshligidagi shoironalik zavqiga to'lgan damlari bilan bog'lashga harakat qilgan. She'rlarini esa zavq bilan ko'tarinki kayfiyatda o'qiydi.

Navoiyshunos olim Alibek Rustamov aytganidek, "She'riy nutq -zavq va hayajonning natijasi bo'lib, shaxsning ruhiy olami bilan zavqi orqali tomoshabinga ta'sir ko'rsatadi. Zavqni qo'zg'atuvchi asosiy omil badiiyat hisoblanadi". Badiiy vositalar, yetuklik va go'zallik Navoiy tilining o'zida mavjud, albatta. Uni o'qigan har qanday aktyor ham badiiy ijroning uddasidan chiqavermaydi. Ammo yosh aktyor B.Muhammadkarimov Navoiy tiliga xos bo'lgan go'zallik va jo'shqinlikning o'z nutqiy ohangida topishga va tomoshabinga yetkazishga harakat qilgan. Masalan, uchinchi ko'rinishning boshida yangi bitilgan she'rni o'qiganida uning nutqidagi ohanglarni qahramonga taalluqli nutqiy ohang desa bo'ladi.

*O'n sakkiz ming olam oshibi agar boshindadur,  
Ne ajab, chun, sarvinozim o'n sakkiz yoshindadur.  
Desa bo'lg'aykim, yana ham o'n sakkiz yil husni bor  
O'n sakkiz yoshunda shuncha fitnakim, boshindadur.*

B.Muhammadkarimov boshqa sahnalarda ham she'rlarni Navoiyning iztiroblarini o'ziga singdirgan holatda yonib o'qiydi. Uning nutqi ravon, chiroyli, ifodali bo'lgani uchun Guli bilan uchrashgan sahnalarda yoshlikka xos bo'lgan ehtiros, zavq-shavq go'zal bir ko'rinishda aks etgan.

Ammo shu bilan birga B.Muhammadkarimovning she'r o'qishda ichki dardga unchalik ahamiyat bermasligini ham aytib o'tish kerak. She'rning ruhiyatini ifodalash bilan cheklanib qoladi. Sahna nutqining asosi bo'lgan so'z xatti-harakati yagona ovoz formasi - ohanglar orqali amalga oshiriladi. Aktyor ijrosida ehtirosning tabiiyligi yoki aksincha, soxtaligi uning badiiy didi qandayligi bilan bog'liqdir. Nasriy lahzalarda ham, she'riy lahzalarda ham nafis, nozik ohang va musiqiylik bo'ladi. Bu mutanosiblik bugun spektakl davomida goh sekin, goh baland bo'lib yangrab turadi. Ohangdorlik ko'pincha ijodkorning ilhom lahzalardagi shoirona kayfiyatidan, hayotni tasvirlash

uslubidan kelib chiqadi. Xuddi mana shu uslubda to'g'ri ohanglarni topa bilish har bir aktyorda har xil kechadi. Spektaklning ikkinchi ko'rinishida aktyor B.Muhammadkarimovning qo'lga kiritgan yutug'i jarayonlarini ko'zdan kechiraylik.

Navoiy Husayn Boyqaro bergan imkoniyatdan foydalanib, to'lanajak xirojlarni bekor qilinganini xalqqa yetkazadi. Xirojlar ko'payib ketganidan sabr kosasi to'lib, qo'zg'olon ko'targan xalq Navoiy keltirgan xabardan xursand bo'ladi. Ammo amir va beklar bunga qarshilik ko'rsatadilar.

Bu sahna ham oldingi sahnalardan farq qiladi. Qatnashuvchilar tomoshabinlarga qarab gapiradilar. Chunki rejissor tasavvuriga ko'ra, xalq - bu tomoshabin. Olomon ko'targan shovqin-suron g'ala-g'ovur radio orqali beriladi. Usta Jaloliddin - G'.Hojiyev, Turdiboy - T.Mo'minov, Muzaffarbek - X.Yunusov, Chol - T.Xonto'rayev va boshqalar xaloyiqni tinchitish bilan ovora bo'lib turganda, sahnaga Navoiy - B.Muhammadkarimov kirib keladi.

Navoiy - Muhammadkarimov sahnadan turib tomoshabinga qarab radiodan berilgan ovozlarni tomoshabin orqali qabul qilib, tomoshabin orqali jonli muloqotda bo'lishi kerak. Rejissor tomonidan aktyorga juda og'ir vazifa yuklatilgan. Aktyorning eng qiynalgan sahnalaridan biri mana shu sahna bo'lgan. Chunki tasavvur orqali kishilar bilan gaplashganda noaniq, tushunarsiz xatti-harakatlar kelib chiqadi. Avvaliga Muhammadkarimovning "Aziz fuqaro! Shahanshohdan farmon keltirdim. Bizdan bemaslahat Hirot beklari tomonidan nohaq solingan xiroj bekor qilindi", deb e'lon qiladigan sudlari nihoyatda notabiiy chiqqan. Aktyorning nutqidagi soxtalik ham yaqqol ko'zga tashlanib turgan. U sahnaga chiqib gapirar ekan. Xuddi ma'ruza o'qiyotgan kishiga o'xshab qolar, nutqida esa deklomatsiya (badiiy asarni chiroyli qilib o'qish san'ati) sezilardi. Bu esa boshqa sahnalardagi voqealarning sust ketishiga sabab bo'lardi.

Repetitsiya jarayonlarida B.Muhammadkarimov bu kamchiliklarni o'zida juda yaxshi sezib turar, sahnadagi kamchiliklarini qanday qilib bartaraf etish mumkinligi haqida o'ylar edi. Bir necha marta urinishlaridan so'ng, rejissor yordamchisi M.Abdullayeva bilan maslahatlashib hatto sahnani o'zgartirish taklifini ham bildirgan edi. Chunki sahnada partnyorsiz ishlash unga nihoyatda qiyinchilik tug'dirayotgan edi. "Behzod yosh bo'lsa-da, juda mas'uliyatni chuqur his qiladigan aktyor, - degan edi rejissor-pedagog M.Abdullayeva. - U o'zi qilayotgan ishidan hech ham qoniqmasdi. Shuning uchun ikkinchi kartinada qiynalganidan mening oldimga "hech ham chiqmayapti, men o'zimni sahnada xuddi tomoshabinga ma'ruza o'qiyotgan kishidek his qilayapman. O'zim aytayotgan so'zlarimga ishonmayapman", deb kelaverar edi. Rejissor unga vazifa bergan, bajarmasdan iloji yo'q. Rejissorning xulosasini aktyor hech qachon o'zgartira olmaydi. U o'ziga aniq maqsad qo'yib olishi, xalqni, ya'ni tomoshabinni o'ziga butunlay og'dirib olishi kerakligini maslahat berardim. Bu yerda

Behzod so'zlarning ma'nosiga va obrazli tasavvurga katta ahamiyat berib ishlashi kerak edi".

Xo'sh, bu maslahatlardan so'ng yosh aktyor qiyinchiliklarning uddasidan chiqa oddimi? U o'zida va tomoshabinda ishonch paydo qila oldimi?

B.Muhammadkarimov juda ko'p izlandi. O'zida haqiqiy ishonch tug'ilmagunicha sahnaga chiqmay yurdi. P'esadagi matn ustida ko'p bosh qotirdi. Nihoyat matnни bo'laklarga bo'lib, so'zlarning ma'nosini aniq maqsadga bo'ysundirib chiqdi. U matnни ijro qilishda qahramonning shoirliğini ham yoddan chiqarmadi. O'z ustida tinimsiz ishlash natijasida o'zida ishonch hosil bo'layotganini seza boshladi. Sahnada repetitsiya jarayonlarida ham o'zidagi o'zgarishni his qiddi. B. Muhammadkarimov shoir obrazini yaratishda, ayniqsa tasavvurdagi obrazlar bilan ishlashda xatti-harakat va ohanglar uyg'unligi bilan birga yana bir narsani - ishonch va haqiqatni ham zabt etish zarurligini tushundi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Холиқулова, Г.Э. (2007). Саҳна нутқи. Тошкент-2007 й.
2. Холиқулова, Г.Э. People's poet of uzbekistan mukhammad yusuf – singer of the native land and love. International conference. Pages 154-159.
3. Гўзал Эркиновна Халикулова. Саҳна нутқи ва жонли тил. Мулоқот, Тошкент. 35 – бет.
4. Гўзал Эркиновна Халикулова. Маннон Уйгур – выдающийся режиссёр узбекского театра и мастер по сценической речи. Эдебиет және өнер институты, Алматы. Вопросы литературы и искусства им. М.Ауэзова. 59-60 стр.
5. Гўзал Эркиновна Халикулова. Саҳна нутқи ва жонли тил. Мулоқот, Тошкент. 35-бет.
6. ГЭ Халикулова. Актёрлар нутқда Навоий шеърляти. Театр, Тошкент. 10-11- бетлар.
7. Гўзал Эркиновна Халикулова. Саҳнада тарихий мухит тасвири. Театр, Тошкент. 20-21- бетлар.
8. Гўзал Эркиновна Халикулова. Искусство речи в историко-поэтических спектаклях. / Искусство Узбекистана. История и современность. Материалы научно-практической конференции молодых ученых. Ташкент: Поколение нового века. Стр. 50-51.
9. Гўзал Эркиновна Халикулова. Замонавий театр ҳақида шахсий мулоҳазалар. Қалдирғоч, Тошкент. №1(4). 2 – бет.
10. Гўзал Эркиновна Халикулова. Вопросы сценической речи в интерпретации узбекской исторической драмы (80-90-е годы). Автореферат 2004 г. стр. 1 – 21.
11. ГЭ Халикулова. Саҳнани актёр безайди. Театр, Тошкент, 22-23-бетлар

12. Guzal Khalikulova. “Мирзо Улуғбек” тарихий драмасида тил масалалари. /Сб науч. тр. “Нафосат”. 144-147.
13. Гўзал Эркиновна Халикулова. Саҳна нутқи (тарихий драмалар талқинида). Ўқув қўлланма. Тошкент. ЎзДСИ. 1 – 9 – бет.
14. Гўзал Эркиновна Халикулова. Husni ta'il - искусство силы. Журнал Театр, Ташкент. № 6. 14-15 стр.
15. Гўзал Эркиновна Халикулова. Чувство уважения. Журнал Калдиргоч, Ташкент. Стр 41.
16. Гўзал Эркиновна Халикулова. Гигиена и техника чтения книг. Журнал Калдиргоч, Ташкент. 21(42).
17. Гўзал Эркиновна Халикулова. Мусиқий ижрочиликда ёшларнинг фаоллигини ошириш ва уни ривожлантириш масалалари. Тошкент ТДМИ, (Тўплам).
18. Гўзал Эркиновна Халикулова. Санъат равнақи йўлида. Журнал Қалдиргоч, Тошкент. 2010/1.
19. Гўзал Эркиновна Халикулова. Хассос сўз устаси. “Мухсин Ҳамидов (Бадий сўз устаси)” номли монографияси учун мақола 2010. ЎзДСИ. 8 – бет.
20. Гўзал Эркиновна Халикулова. Маънавий баркамоллик давр талаби. ЖизПИ, тўплами. 363 – бет.
21. Гўзал Эркиновна Халикулова. Ўзбекистон давлат санъат институтида кадрлар тайёрлаш сифатини яхшилаш ва соҳани ривожлантиришда амалга оширилаётган ишлар. Ўзбекистон санъати ва маданиятида замон қаҳрамони образини яратиш муаммолари ва ечимлари” Тўплам. ЎзДСИ.
22. Гўзал Эркиновна Халикулова. Юрт тараққиёти, халқ фаровонлиги ҳамда баркамол авлодни тарбиялашда санъатнинг роли. Халқаро Симпозиум материаллари тўплами.
23. Гўзал Эркиновна Халикулова. Формирование сценической речи в профессиональных спектаклях и роль системы Станиславского в развитии театрального искусства. Брянск, Сборник материалов VI Международного симпозиума. Стр. 219 – 225.
24. Гўзал Эркиновна Халикулова. Замонавий раҳбар аёлнинг профессионал нутқини оширишга доир. 2012 й. “Аёл – маънавият гулшани” ЖизПи., 4- Республика илмий-амалий конференцияси Тўплам.
25. Гўзал Эркиновна Халикулова. Актёрнинг саҳна нутқи маҳоратини эгаллашда нафасни такомиллаштирувчи янги услубий изланишлар. 2012/3/27. Глобаллашув жараёнида хореография санъати соҳасида миллийликни сақлаш муаммолари 2- республика конференцияси. Тошкент.
26. Гўзал Эркиновна Халикулова. Театрларда адабий тил масъулияти. 2013 й. Янги давр санъати: анъанавийлик ва трансформацион жараёнлар. Тошкент,

Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти. 82-84 бет.

27. Гўзал Эркиновна Халикулова. Спектакль яратишда сўз ва ҳаракат уйғунлиги масалалари. 2014. Тошкент.: “Мумтоз сўз”. 110-114 бетлар.

28. Гўзал Эркиновна Халикулова. Саҳна асарларида қаҳрамон характери яратиш масалалари. Республика илмий-назарий ва амалий конференция материаллари. Тошкент: Наврўз. 112 – 117 бетлар.

29. Гўзал Эркиновна Халикулова. Институтда олий малакали илмий ва илмий педагог кадрлар тайёрлашнинг долзарб муаммолари. Театр// – Тошкент: 2014. (3). 9 -10 – бет.

30. Гўзал Эркиновна Халикулова. Сўз масъулиятини англаш ҳам санъат. Хуррият// – Тошкент. (43) 6-7 бетлар.